

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА МАШГ'УЛОТЛАРДА ТА'ЛИМ СИФАТИНИ НАЗОРАТ QИЛИШ VA ТАШКИЛ ETISHNING ASOSIY OMILLARI

Sharipova Feruza Yarashovna

Buxoro viloyati Jondor tumani 23-son DMTT direktori

Annotatsiya: Maqlolada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, boshqaruv ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarishtashkil qilish xususida fikr bayon etilgan.

Аннотация: В статье описаны реформы, которые проводятся с целью дальнейшего совершенствования и развития системы дошкольного образования в нашей стране, а также управления и контроля качества образования.

Abstract: The article describes the reforms that are being carried out with the aim of further improving and developing the preschool education system in our country, as well as managing and monitoring the quality of education.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta'lim tizimi, tashkilot, menejment, boshqarish metodlari, kadrlar, ta'lim sifati, ilmiy yondashuv, jarayon, vaziyatli,dasturiy-maqsadli yondashuv,kadrlar siyosati.

Ключевые слова: система дошкольного образования, организация, менеджмент, методы управления, персонал, качество образования, научный подход, процесс, ситуационный, программный подход, кадровая политика.

Key words: pre-school education system, organization, management, management methods, personnel, quality of education, scientific approach, process, situational, programmatic approach, personnel policy.

Tashkiliy pedagogik faoliyatni kuzatishda: - mudiraning bu ishni to‘g‘ri tashkil etgani, uning tashkiliyma’muriy, tarbiyaviy va moliyaviy-xo’jalik ishlarini samarali olib borayotgani, jamoa a’zolari, tarbiyachi va boshqa xodimlar bilan munosabati, shuningdek, ota-onalar bilan o’zaro munosabatlarini qanday yo‘lga qo‘yaniga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat qilish (tekshiruv)ning usul va uslublari.

+ bolalarning tashkilotdagi mashg‘ulotlarini, kun tartibining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;

+ pedagogik va moliyaviy-xo’jalik ishlariga oid hujjatlarni o‘rganish va tahlil qilish;bolalar ishlarini tahlil qilish;

+ mudira, tarbiyachilar, ota-onalar va bolalar bilan (ularning bilimi, ongi, nutqining rivojlanishini aniqlash maqsadida) suhbatlashish;



«Pedagogik kengash», «Ishlab chiqarish majlislari»da, ota-onalar kengashlarida ishtirok etish;jamoat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashish.

Tekshiruv jarayonida qanday usul va uslublarni qo'llash nazorat qilish turiga, muayyan guruhda tarbiyaviy jarayonning qay jihatni yoki muassasa moliyaviy-xo'jalik ishlarining qaysi tomonlari tekshirilishi, nazoratchiuslubchining kasbiy mahorati va amaliy tajribasiga bog'liqdir. Tekshiruv jarayonida turli usullarning qo'llanishi maktabgacha ta'lim muassasasi ishini har tomonlama o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir. Kuzatish usuli bu — pedagogik jarayondagi yutuq va kamchiliklarni, ishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va ta'lim-tarbiya ishlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladic SHuningdek, kuzatish uslubi — muassasadagi pedagogik jarayonga, uslubiy va moliyaviyxo'jalik faoliyatining holatiga to'g'ri baho berish va zarur xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratadi.Yalpi tekshirish usuli orqali muassasaning kun davomidagi faoliyatining barcha jihatlari: tashkiliyma'muriy, moliyaviy-xo'jalik, ta'lim-tarbiya ishlarining mazmuni, yo'nalishlari,samarasi va natijalari kuzatiladi.

Zamonaviy boshqaruv bu maktabgacha ta'lim tfshkiloti rahbarning tashkilot oldidagi burchi bu uning o'zi boshqarayotgan tashkilotning rivojlanishida turli vaziyatlarda tashkilot tashqi omillarini tashkilot ichki omillariga, ya'ni pedagogik xodimlar, ta'lim texnologiyalar, ta'lim jarayonini rejalashtirish boshqarish mexanizmlarini erta anglay bilishi va shu asnoda oqilona qarorlar qabul qilishi bilan belgilanadi. Prezidentimizning quyidagi berilgan fikrlari maqolamizning kirish qismida berib o'tishni joiz topdik: "Har bir fuqaro qabul qilayotgan qarorlarimiz real foyda berayotganini bilishi kerak. Boshqaruv boshqariladigan obyektdagi jarayonlarning aniq maqsadga qaratilganligini va uyushganligini ta'minlashi lozim. Boshqaruv o'zining bu vazifasini bilishi kerak bo'lgan narsaning qiyofasini (maqsadlar va ularga erishish rejalarini) shakllantirish; ijrochilar o'rtasida vazifalar va vakolatlarni taqsimlash (rasmiy tuzilmani yaratish va saqlab turish); ijrochilarning samarali mehnatdan manfaatdorligini ta'minlovchi sharoit yaratish (rag'batlantirish); jamoada umumiy kadriyatlar va qulay munosabatlarni shakllantirish (norasmiy tuzilma yaratish va saqlab turish); ishning borishini nazorat qilish kabi va boshqa maxsus boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali amalga oshiradi.

Ta'lim mazmuni, ta'lim tashkilotlari tartibini va ta'lim sifatini boshqarishni alohida faoliyat sifatida belgilash mumkin. Bunda uning subyekti boshqaruv vazifalarini hal qilish orqali pedagoglar, ota-onalar, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning birgalikdagi faoliyatining uyushqoqligini hamda ta'lim maqsadlari va rivojlanish maqsadlariga erishishga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

Ta'limni boshqarish metodlari — bu boshqaruv subyektining muayyan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan obyektga ta'sir ko'rsatish metodlaridir.

Tashkiliy-boshqaruv metodlari qonunga, xuquq-tartibotga, lavozimi bo'yicha o'zidan yuqoriroq bo'lgan xodimiga bo'ysunishga, ya'ni hokimiyat motivatsiyasiga asoslanadi.



Ta'lim sifatini boshqarish, eng avvalo, boshqaruv kadrlari tomonidan ta'lim va kadrlar tayyorlash jarayonini kuzatish kabi faoliyat turidan foydalanishni ko'zda tutadi. Buning uchun ular tegishli metodlarni, jumladan, kvalimetriya asoslarini, ya'ni sifatni miqdoriy baholash metodini qo'llash orqali ta'lim sifatining boshlang'ich va berilgan holatini aniq belgilashlari lozim bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda mahsulot, xizmatlar sifatini baholash, boshqaruv faoliyatining baholash ob'ekti to'g'risida qadriyat borasidagi mulohazalarni shakllantirishga qaratilgan funksiyasining alohida tipiga kiritiladi.

Ta'lim sifatini o'lchash sifat o'lchovini belgilash va uning qiymatini maxsus algoritmlar yordamida olishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonning samaradorligi baholashning statistik metodlarini qo'llash orqali ta'minlanadi. Bu baholanayotgan ob'ektning sifat ko'rsatkichlari qiymati aksariyat hollarda tasodifiy kattaliklar deb hisoblanishi bilan bog'liqdir. Bunday holat ana shu sifatga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi ko'plab omillar va shart-sharoitlar bilan izohlanadi. SHu bois boshqaruv tarkibi ta'lim sifati haqidagi axborotni olish va ishlashning statistik metodlarini qo'llay bilishi kerak. Shu jihatdan olganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar, boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etishda rahbarlik layoqatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur vazifani amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar xodimlarining har biridan yuksak kasbiy salohiyat va insoniy sifatlarga ega bo'lish talab etiladi. «Avvalambor, uning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamasligi, kerak bulsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo'lishini, o'z kasb-korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishini kutadi.



Shu bilan birga maktabgacha ta’limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri - buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mo‘jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab etadi. Hozirgi davrning bu talabi – matabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilarini axloqan va ma’nan yetuk, komil insonlar qilib tarbiyalash vazifalarini bajarishni talab etadi. MTT rahbarlari va pedagog kadrlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasidir. Boshqacha aytganda, o‘z xaq-huquqlarini taniydigani, o‘z kuchi va imkoniyatlarini anglagan, atrofda sodir bo‘layotgan voqeя va hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashgan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un xolda quradigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalash lozim. Shu jihatdan olganda, barkamol insonni tarbiyalash avvalo, pedagoglardan ulkan mahorat va mas’uliyatni talab qiladi. Ustozlik mahorati va tarbiyachilik san’atining tayyor andozasi yoki qolipi mavjud emas. Ushbu san’atni egallash uchun insondon katta kuch, ijodkorlik va ko‘p yillik tajriba talab etiladi. Onini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o‘quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan emas, balki bolalarning olgan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog‘liq ta’lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda. Har tomonlama taraqqiy etgan, aqlan va ma’nan barkamol, jismonan va ruhan tetik farzandlarni maktabgacha tarbiya tashkilotlarida kamol toptirish ahamiyati, Vatanimizning ravnaqi bugungi kunda yosh avlodlarga bergen ta’lim sifati va tarbiya mohiyati bilan chambarchas bog‘liqligi alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mo‘jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishga zamin hozirlaydi.



O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishda ta’lim jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish va ularda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otishdir. Pedagogning ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo‘lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan pedagog tarbiyadagi

qiyinchiliklarni yengishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxslardir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv faoliyatining sifati o‘quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o‘quv reja, dasturlarining mazmun mohiyati bilan yemas, balki tahsil oluvchilarining olgan bilimlari, malaka va ko‘nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog‘liq ta’lim natijasi sifati bilan belgilanmoqda.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim va tarbiya sifatini takomillashtirish muammosini alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish ehtiyoji sezilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, 2019., 13 may, PQ 4312 son.
2. Narimbaeyva L.K Maktabgcha ta’lim sifatini nazorat qilish va boshqarishning mexanizmlarini takomillashtirish. "Экономика и социум" №9(88) 2021 www.iupr.ru 944-945b
3. Mirziyoev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” ” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi Toshkent-“O‘zbekiston” -2016, 11-bet, 20-bet.
4. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga qo‘ramiz. –Toshkent:O‘zbekiston, 2017.-488 bet.